

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“TURIZM VA SERVIS” KAFEDRASI

*Qo‘lyozma huquqida
UDK:338.48(575.1)*

RASULOVA NIGORA YUSUPOVNA

**O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

71010401–Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA


**Ilmiy rahbar:
i.f.d., prof. A.Abduvohidov**

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “Turizm va servis” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

14 -sonli bayonnoma “ 26 ” may 2023 y.

Kafedra mudiri: I. A. Axmedov



imzo

05.05.2023

sana

Ilmiy rahbar: A. Abduvohidov




imzo

03.05.23

sana

Talaba: N. Rasulova



imzo

03.05.23

sana

Dissertatsiya Magistratura bo‘limida 2021 yil “ 20 ” dekabr

№ 8087 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

ANNOTASTIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollarning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganildi, ekologik turizmni turlari bo'yicha tashkil etishda barcha mavjud resurslarni jalb etish holati tahlil qilindi. Tadqiqotlar jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari belgilab berishda samarali vosita bo'lib hisoblanadi.

KALIT SO'ZLAR

Ekologik Turizm, ekoturizm resurslari, ekoturlar, ekotur mobil ilova, ekoturistik ob'ekt, Muhofaza qilinadigan hududlar, Yashil turizm, Ekologik mehmonxonalar, tabiiy landshaftlar

ABSTRACT

In this master's thesis, the theoretical and methodological foundations of the prospects for the development of ecological tourism in Uzbekistan were studied, the state of attracting all available resources in the organization of ecological tourism by types was analyzed. The practical application of the scientific proposal and practical recommendations developed in the course of research is an effective tool in determining the prospects for the development of ecological tourism in Uzbekistan.

KEY WORDS

Eco Tourism, ecotourism resources, ecotours, ecotour mobile app, ecotourism site, Protected Areas, Green Tourism, Eco Hotels, Natural Landscapes

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	4
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
KIRISH	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	9
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	11
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.....	12
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	12
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
I-BOB ADABIYOTLAR SHARHI	13
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	13
1.2. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	14
II-BOB METODOLOGIYA	16
2.1. Tadqiqot dizayni.....	16
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	16
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	17
2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	17
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi...	18
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	18
III-BOB TAHLIL VA NATIJALAR	19
3.1. Jahonda ekologik turizmining rivojlanish holati.....	19
3.2. O'zbekistonda ekologik turizmining rivojlanish tendensiyalari.....	26

3.3.	O‘zbekistonning ekologik turizmi ob‘ektlari va ularning geografik joylashuvi.....	29
3.4.	Ekologik turizm marshrutlarini ishlab chiqish yo‘llari.....	33
3.5.	Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	36
XULOSA.....		39
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....		45
ILOVALAR.....		50

KIRISH

Dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. Mamlakatda ekologik turizmni rivojlantirish, mazkur sohada aholini ish bilan bandligini oshirish va shuning bilan bir qatorda tabiiy turfa xillikni, ya'ni biobalansni saqlash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish maqsadida davlat organlarining ekologik turizmni rivojlantirish sohasida aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda, ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion platformalarni amaliyotga keng tatbiq etishning yaxlit tizimini yaratish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini boshqarish va joriy etish sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga, sifatli axborot xizmatlarini ko'rsatishga to'sqinlik qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023 yilning 30 mart kuni mamlakat turizmini rivojlantirish bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.¹ Biryoqlama iqtisodiyot barqaror bo'lmaydi. Shu bois, mamlakatimizda iqtisodiyotni tarkibiy isloh qilib, keng ko'lamda rivojlantirish choralari ko'rilmogda. Xususan, turizm drayver sohalardan biri sifatida belgilanib, zarur sharoitlar yaratilmogda. Masalan, sayyohlarga viza berish yengillashtirildi. Aeroportlarda navbatlar va tekshirishlarga barham berildi, yashil yo'laklar qilindi. Valyuta ayirboshlash bemaol bo'ldi. Shuningdek, suv omborlari, o'rmon xo'jaligi yerlarini o'rganib, xavfsiz yerlarda turistik zonalar tashkil etish mumkinligi qayd etildi. Qoraqalpog'iston, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo, Farg'ona va Xorazmning cho'l hududlarida "safari" turizmini rivojlantirish bo'yicha takliflar bildirildi. Shuningdek, ekologik turizmni rivojlantirishda innovatsion raqamli platformalarni tatbiq etish dolzarb masalalardan bo'lib hisoblanadi.

Ekoturizmning maqsadini belgilashda jahonda ekoturizmning kelib chiqishi va shakllanishini puxta o'rganishni talab qiladi. Hozirgi kunda ekoturizm jahon

¹ <https://www.spot.uz/oz/2023/03/30/tourism-assignment/>